O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini davlat-xususiy sheriklik asosida	
moliyalashtirishning istiqbollari.....	1074
Xalilova Shoxsanam G'ayrat qizi	
"EIZ" hududida soliq va bojxona rejimlari uchun imtiyozlarni tahlil qilish .....	1079
Xusanov Durbek Nishonovich, Djurayeva Iroda Bahrom qizi	
Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini lizing asosida moliyalashtirish istiqbollari.....	1083
Aliqulov Mehmomalai Salahiddin o'g'li	
Iqtisodiyotni rivojlantirtishda sun'iy texnologiyalarning o'rni .....	1088
Xonova Nodira Fazliddinovna	
O'zbekistonning investitsiya muhitini jozibadorligini oshirish yo'llari.....	1093
Sotimov Yunusbek Turg'unboy o'g'li	
"Yashil" sanoat siyosatini yuritish zaruriyati: bozor nuqsonlaridan milliy xavfsizlikkacha.....	1198
Muqimov Sherali Axmadali o'g'li	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatining hozirgi holati tahlili va rivojlantirish istiqbollari.....	1103
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
Improving the Methodology of Econometric Analysis of the Efficiency of Financial Activity	
of Agricultural Agroclusters of Uzbekistan.....	1108
Ochilov Ilhom Sayitkulovich	
O'zbekistonda "Yashil" iqtisodiyotga o'tish va "Uglerod neytralligiga erishish" strategiyalarining ahamiyati ....	1116
Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Qulliyev Ulug'bek Mirzayevich,	
Mamataliyev G'ayrat Chori o'g'li, Bazarov Shodi Abdirahmonovich	
Oziq-ovqat mahsulotlari brend qiymatini oshirishda marketing strategiyalari.....	1123
Xodjiyev Ibroxim Ikramovich	
Актуальные вопросы укрепления доверия населения к банковской системы Республики Узбекистан	1129
Рузибоеva Нилуфар Тулкин кизи	
Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish uchun mintaqaviy siyosat	
vositalarining xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	1135
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Mintaqa korxonalarining rivojlanish potensialini shakllantirishda innovatsion	
marketingning o'rni va mohiyati .....	1142
Axmedov Alim Babaniyazovich	
O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini tokomillashtirish yo'llari.....	1146
Samandarova Dilfuza Mansurovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari: mavjud muammolar va yechimlar.....	1153
Fatilloyev Farrux Farhod o'g'li	
O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'iga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlarning	
iqtisodiy-statistik tahlili.....	1158
Zakirova Umida Maxamadaminovna	
Banklar tomonidan muammoli kreditlar bilan ishslash samaradorligini oshirish yo'llari	
("Agrobank" ATB misoldi).....	1167
Yusufov Xurshidjon Sharifovich	
Namangan viloyatida don va don mahsulotlari narxini shakllanishining bozor tadqiqoti.....	1172
Bahriiddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li	



O'zbekiston Respublikasi va xorijda tog' turizmini rivojlantirish omillarini qiyosiy baholash .....	1177
<b>Maqlanov G'olibjon Muxammad o'g'li</b>	
Improving The Effective Use Of Local Taxes And Levies In Tashkent City .....	1182
<b>Shahzad Zokhidov</b>	
Совершенствование методологии механизмов налогообложения ресурсного налога .....	1186
<b>Муҳиддинов Талат Шайдулло угли</b>	
Tadbirkorlik faoliyatida investitsiya muhitining xususiyatlari va chet el kapitalining jozibadorligi.....	1189
<b>I. M. Kamoliddinov, To'khtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li</b>	
Kichik biznes tarmoqlariga investitsiyalarни jalg etish xususiyatlari.....	1194
<b>Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li</b>	
Inson resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish orqali iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish.....	1199
<b>Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li</b>	
Organik qishloq xo'jaligiga o'tishning rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy va ekologik afzallikkari.....	1203
<b>Ahrorov Farhod Baxriddinovich</b>	
Korxonalarda uzumchilik mahsulotlarni ishlab chiqarishda strategik boshqarishda mintaqaviy klaster modellashtirishdan foydalanish.....	1208
<b>Muhitdinov Asror Akobirovich</b>	
Qashqadaryo viloyatida ishsizlik darajasini istiqbolda kamaytirish ssenariylari .....	1213
<b>Djumayev Zayniddin Ahmedovich, Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li</b>	
Kam ta'minlangan oilalarda tadbirkorlik faoliyatini o'ziga xos yo'llari va imkoniyatlari .....	1219
<b>Tursunov Nozimjon Nosirovich</b>	
Korxonalar samaradorligini oshirishda soliqlar va soliq siyosatining ahamiyati.....	1223
<b>Saida Yuldasheva</b>	
The Contribution of Ecotourism in Developing Gdp in Uzbekistan .....	1227
<b>Saidova Dildora Nurmatovna, Umarov Husanboy Bahromjon o'g'li, Xolyigitov Umidjon Alijon o'g'li</b>	
Mehmonxonalar faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirishda turizmnning o'rni .....	1231
<b>Abduraxmanova Ziyoda Abdullayevna</b>	
O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etilishi va undagi asosiy o'zgarishlar tahlili.....	1237
<b>Normurzayev Umid Xolmurzayevich</b>	
Tog' va tog'oldi hududlari qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirish va rivojlantirish yo'llari.....	1245
<b>Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna</b>	
Правовые основы маркетинговых стратегий акционерных обществ в Республике Узбекистан .....	1250
<b>Эркинов Шахзод Баходир угли</b>	
O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarining yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish hisobiga budget daromadlari barqarorligini baholash amaliyoti.....	1254
<b>Ikramov Ravshan Amanbayevich</b>	
Uzum-vinochilik mahsulotlari bozorida eksportni diversifikatsiyalash strategiyalaridan foydalanish .....	1261
<b>Azadova Bonuposhsha Alisher qizi</b>	
Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning nazariy asoslari.....	1266
<b>Sadikov Iskandar Gayratovich</b>	
Milliy soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirishda ikki yoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari.....	1272
<b>Rajapov Shuxrat Zaripbaevich</b>	



# TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI

**Sadikov Iskandar Gayratovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlash yuzasidan turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ular moliyaviy barqarorlikning maqsad va vazifalariga qarab farqlanishini tadbiq etish ilgari suriladi. Shuningdek, bank tizimining moliyaviy barqarorligi va ishonchliliginu yanada oshirish, tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning investitsiyaviy faolligini rag'batlantirish bo'yicha choratadbirlarni aniqlash tahlil qilingan. Ushbu qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'lida muallif tomonidan tadqiqotlar amalga oshirilgan va natijalarga erishilgan.

**Kalit so'zlar:** Tijorat banklari, moliya tizimi, bank tizimi, banki resurslari, banklarning moliyaviy barqarorligi, bank sektori, xususiy sektor, moliyaviy vositachilik, moliyaviy qarorlar, moliyaviy barqarorlikni baholash.

**Abstract:** This article discusses various approaches to ensuring the financial stability of commercial banks, the purpose of which is to introduce differentiation of financial stability depending on goals and objectives. It also consists in defining measures to further improve the financial stability and reliability of the banking system, create favorable conditions for strengthening and developing the resource base of commercial banks, and stimulate their investment activity. On the way to achieving these goals, the author conducted research and obtained results.

**Key words:** Commercial banks, financial system, banking system, Bank resources, financial stability of banks, banking sector, private sector, financial intermediation, financial decisions, financial stability.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются различные подходы к обеспечению финансовой устойчивости коммерческих банков, целью которых является внедрение дифференциации финансовой устойчивости в зависимости от целей и задач. Он заключается также в определении мер по дальнейшему повышению финансовой устойчивости и надежности банковской системы, созданию благоприятных условий для укрепления и развития ресурсной базы коммерческих банков, стимулированию их инвестиционной активности. На пути к достижению этих поставленных целей автором были проведены исследования и получены результаты.

**Ключевые слова:** коммерческие банки, финансовая система, банковская система, банковские ресурсы, финансовая устойчивость банков, банковский сектор, Частный сектор, финансовое посредничество, финансовые решения, оценка финансовой устойчивости.

## KIRISH

Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini baholashga turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ular baholash maqsad va vazifalariga qarab farqlanadi. Bunda iqtisodiy subyektlar ko'pincha nazorat organlari tomonidan qo'llanilayotgan va tasdiqlangan modellarga asoslanadilar. Shuning uchun ikkinchisi alohida asosiy ahamiyatga ega.

Moliyaviy barqarorlik – bu moliyaviy tizimning, ya'ni moliya muassasalari, bozorlar va bozor infratuzilmlarining ehtimoliy shoklar va nomutanosibliklarga bardosh bera olishi, shu bilan birga moliyaviy vositachilik funktsiyalarini bajara olmaslik ehtimolini pasaytirish qobiliyatidir. Moliyaviy barqarorlik maqsadi alohida moliya muassasasi emas, balki butun moliya tizimi barqarorligini ta'minlashdan iborat. Moliyaviy barqarorlik iqtisodiyotning barqaror rivojlanish asosi hisoblanadi.

Moliyaviy tizim, qachonki banklar, boshqa kredit tashkilotlari va moliya bozorlari uy xo'jaliklari va tadbirkorlik subyektlariga bir maromda ishlayotgan tizimning keskin sustlashishiga yo'l qo'ymasa, iqtisodiyotdagi ishtiroti va uning o'sishi uchun zarur moliyaviy investitsiyalar taqdim eta olsagina barqaror hisoblanadi. Aks holda nobarqaror tizimda iqtisodiy shoklar real iqtisodiyotga noxush ta'sir ko'rsatishi, kreditlashni izdan chiqarishi va kutilganidan ziyod xatarga olib kelishi, bandlikning qisqarishi va iqtisodiy faollikni susaytirishi mumkin. Yuqoridaagi fikrlar tadqiqot mavzusining dolzarbligini va ilmiy-amalii ahamiyatga ega ekanligini belgilaydi.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodchi olimlar Z.Axrarov va Sh.Jalilovlar “Moliyaviy barqarorlik – bu bank moliyalashtirish manbalari tarkibida o‘z mablag‘lari yetarli hissasini ta‘minlovchi moliyaviy holatidir. O‘z mablag‘lari yetarli hissasi moliyalashtirishning jalb qilingan manbalari to‘liq va o‘z vaqtida qaytarilishini ta‘minlashda foydalanilishini anglatadi”<sup>[1]</sup> deya ta‘rif berishgan.

Ye.V.Korchagina o‘z qarashlarida quydagicha ta‘rif keltirib o‘tadi. “Moliyaviy barqarorlik – o‘z mablag‘lari investitsiya shaklida yo‘naltirish, faoliyat va ishlab chiqarish siklining yangi yo‘nalishlarini tashkil qilishni qo‘llab-quvvatlash, kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalarni moliyalashtirish va moliyaviy mablag‘lar bilan ta‘minlaniganlik darajasi orqali izohlanadi”<sup>[2]</sup>.

I.A.Pavlova fikricha, bank moliyaviy barqarorligining mohiyati “uning shunday moliyaviy holatidirki, unda bankning xo‘jalik faoliyati uning barcha majburiyatlarini ta‘minlashga imkon beradi”<sup>[3]</sup>. I.N.Omelchenko va Ye.V.Borisovalar fikricha, “moliyaviy barqarorlik - doimiy tarzda bozor kon‘yunkturasi o‘zgarib borishi sharoitida bankning o‘z moliyaviy stabilligini saqlab qolish qobiliyatidir”<sup>[4]</sup>. L.T.Gilyarovskaya va A.A.Vexorevalar ta‘kidlashicha, bank moliyaviy barqarorligi tushunchasi uning shunday holatidirki, bunda mavjud resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonida nafaqat to‘lovga layoqatlilik ta‘minlanadi, balki shu bilan birga foya va kapitalning o‘sishiga erishish maqsadidagi rivojlanishga ham erishiladi<sup>[5]</sup>.

N.L. Danilova banklarning moliyaviy barqarorligi bo‘yicha quydagi ta‘rifni keltirib o‘tadi. Unga ko‘ra “moliyalashtirish manbalarining bir qismi sifatida o‘z kapitalining yetarli ulushi bilan ta‘minlanadigan bank moliyaviy holatinining barqarorligi bankning moliyaviy barqarorligi deyiladi”<sup>[6]</sup>.

“Bank moliyaviy barqarorligini baholash uchun bir nechta turli yondashuvlar qo‘llaniladi”: “an‘anaviy, resursli-boshqaruv, resurs yondashuvi, stoxastik tahlil asosida baholash, ko‘pliklar nazariyasi va boshqa turdag‘i hisob usullaridan foydalanish mumkin”<sup>[7]</sup> ligi haqida D.A. Yendoviskiy hamda A.V.Yendoviskayalar o‘z ilmiy qarashlarini keltirib o‘tishgan.

A.U.Burxanovning fikricha: “moliyaviy barqarorlik: birinchidan, “birgina korxona sarmoya tarkibini emas, balki umuman korxona moliyasi xolatini tavsiflaydi”; ikkinchidan, “foya olish va qarzлarni to‘lash, korxona o‘z faoliyatini moliyalash imkoniyati va resurslar aylanish tezligining bir maromda rivojlanib borishiga asoslangan korxonalar faoliyatining kompleks ko‘rsatkichidir”; uchinchidan, “korxonaning ishlab chikarish va moliyaviy faoliyati natijalarini aks ettiradi hamda ular o‘rtasidagi teskari aloqani hisobga olgan holda ushbu natijalar uyg‘unligining tizimli jarayonini o‘zida namoyon etadi”; to‘rtinchidan, “korxonaning aylanma mablag‘larini boshqarish orqali sarflangan sarmoyaga eng yuqori daromad olishni ta‘minlaydi” deya ta‘kidlaydi<sup>[8]</sup>.

I.T. Balabanov “bankning moliyaviy barqarorligi mablag‘larni joylashtirish va ulardan foydalanish, foya miqdori hisobiga o‘z mablag‘larini to‘ldirish, shuningdek rejani, asosiy va aylanma mablag‘larning aylanish tezligini hisobga olgan holda boshqa manbalar bilan tavsiflanadi”<sup>[9]</sup>.

A. D. Sheremet va R. S. Sayfullinlar moliyaviy barqarorlikni bankning mavjud aktivlari yordamida o‘z majburiyatlarini qoplash qobiliyati deb hisoblashadi. Mualliflar kompaniyaning mavjud manbalarining tarkibi va tuzilishiga alohida ahamiyat berishadi, shuningdek, holatni tahlil qilishda naqd pul aylanmasi dinamikasini hisobga olishadi<sup>[10]</sup>.

Shuningdek, ba‘zi iqtisodiy adabiyotlarda bank moliyaviy barkarorligini ta‘minlashning yanada batafsil yoritib berilgan holatlar ham yo‘q emas. Masalan, “... Moliyaviy barqarorlik – bu mumkin bo‘lgan iqtisodiy o‘zgarishlar va zarbalarga qaramay, moliyaviy institutlar va bozorlar tizimining samarali va barqaror ishlashi qobiliyatidir. Bu moliyaviy inqirozlarning yo‘qligi yoki minimal darajasi, bank tizimining barqarorligi, iqtisodiyotning real sektori uchun moliyaviy xizmatlarning ishonchliligi va qulayligi bilan tavsiflanadi.

## TADQIQOTNI AMALGA OSHIRISHDA FOYDALANILGAN USULLAR

Tadqiqotni amalga oshirishda qo‘ylgan maqsadlarni amalga oshirishda mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhsashtirish, iqtisodiy-statistik tahlil, o‘zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan samarali foydalanildi.

Olingan natijalar. Olib borilgan tahlillar natijasida O‘zbekiston tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta‘minlash yuzasidan turli yondashuvlar mavjud bo‘lib, ular baholash maqsad va vazifalariga qarab farqlanishida iqtisodiy subyektlar ko‘pincha nazorat organlari tomonidan qo‘llanilayotgan va tasdiqlangan metodika hamda modellarning rivojlanishiga to‘siq bo‘layotgan holatlar hamda ularni bartaraf etish yo’llari asoslab berilgan.


## TAHLILLAR

Tijorat banklari moliyaviy barqarorligining tarkibiy asosini kapital, likvidlik, samarali tartibga solish va nazorat qilish, risklarni boshqarish va shaffoflik tashkil etadi. Ushbu komponentlarning birgalikda qo‘llanilishi iqtisodiy qiyinchiliklarga dosh bera oladigan va uzoq muddatli rivojlanishni ta‘minlaydigan barqaror moliyaviy tizimni yaratishga yordam beradi.



2023-yil davomida global miqyosda moliyaviy sharoitlarning yumshayotganligi kuzatildi. Dunyoda davom etayotgan ziddiyatlari geosiyosiy vaziyat, shuningdek rivojlangan mamlakatlar moliya tizimlarida yuzaga kelgan noaniqliklar sababli moliya bozorlaridagi tebranuvchanlikning ortishiga qaramasdan 2023-yilda jahon moliyaviy sharoitlar indeksida ijobji tendentsiya saqlanib qoldi. Shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozori bo'yicha ijobji o'zgarishlar, shu jumladan ularning narxlarida kuzatilgan past o'zgaruvchanlik darajasi global makromoliyaviy holatning yumshashiga ta'sir ko'rsatdi.

Aksariyat davlatlarda moliyaviy sharoitlar bilan bog'liq xatarlar saqlanib qolmoqda. Rivojlangan davlatlarning suveren obligatsiyalarida kuzatilgan yuqori rentabellik darajasi xalqaro bozorda rivojlanayotgan davlatlar aktivlariga investitsiyalarni qisqarishiga sabab bo'ldi. Bundan tashqari, 2023-yil davomida kuzatilgan yuqori foiz stavkalari kreditlarga bo'lgan talabni qisqartirdi. Shuningdek, qarz oluvchilarning ma'lum segmentlari uchun majburiyatlarni bajara olmaslik holatlari kuchayishda davom etib, banklarning kredit tavakkalchiligiga bo'lgan ishtiyoqini pasaytirdi. Yuqori foiz stavkalari muhitidagi moliyaviy sharoitlar ta'sirida zaifroq rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotida qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin<sup>1</sup>.



1-rasm: O'zbekiston moliyaviy sharoitlar indeksi<sup>2</sup>


Moliyaviy sharoitlar indeksi ko'rsatkichining musbat qiymatlari moliyaviy sharoitlarning qat'iylashishini, manfiy qiymatlari esa moliyaviy sharoitlarning yumshashini anglatadi. Mamlakatimizda ichki talabning yuqori o'sishi kuzatilmoxda. 2023-yilda mamlakat iqtisodiy o'sish sur'ati 6 foizni tashkil etgan. Jumladan, 2023-yil yakuniga ko'ra, YALM o'sishiga mamlakatda ichki talabning oshishi 9,2 foiz band ijobji hissa qo'shgan bo'lsa, sof eksport manfiy salbdosi kengayishining iqtisodiy o'sishga salbiy ta'siri 3,3 foiz bandni tashkil etgan. Ichki talab tarkibida iste'mol xarajatlari yuqori ulushga ega bo'lib, 2024-yil 1-yanvar holatiga 64 foizni tashkil etgan.

Bank tizimining shoklarga bardoshlilik holati zaiflashishiga qaramasdan, moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ushu ko'rsatkichlar o'rnatilgan minimal talablardan yuqori shakllandi. 2023-yilda sof barqaror moliyalashtiresh koeffitsiyenti ko'rsatkichi 3,8 foiz bandga pasaydi. Yuqori likvidli aktivlar hajmining kamayishi hisobiga likvidlitlikni qoplash ye'yori koeffitsiyenti ko'rsatkichida keskin pasayish kuzatilib, 2023-yil so'ngida 165 foizni tashkil etdi. 2023-yilda reguliyativ kapitalning monandilik koeffitsiyentida deyarli o'zgarish kuzatilmadi va 2022-yil yakuniga nisbatan atigi 0,3 foiz bandga kamaygan.

Bank tizimida moliyaviy barqarorlik holati xaritasi aktivlarning o'sishi hamda rentabelligi deyarli o'zgarishsiz qolganligini ko'rsatdi. 2023-yilda aktivlarning rentabelligi ko'rsatkichi o'zgarishsiz 2,5 foiz atrofida shakllandi. 2023-yilda jami aktivlar hajmining o'sish sur'ati biroz sekinlashib, 2022-yilga nisbatan 8 foiz bandga pastroq bo'ldi. (2-rasm)

1 International Monetary Fund. (2024, January). World Economic Outlook.


2 <https://cbu.uz/> ma'lumotlati asosida muallif tomonidan tuzildi



2-rasm: O'zbekiston Respublikasi bank tiziminig moliyaviy barqarorlik holati<sup>3</sup>

Foizli xarajatlarni qoplash koeffitsiyenti 2023-yilning dastlabki yarim yilligi yakuni holatiga o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4 foiz bandga kamayganligi banklar jalb qilingan qarzlar bo'yicha foiz to'lovlarini bank foydasi hisobidan qoplay olish imkoniyati pasayganligidan dalolat beradi. Shuningdek, 2023-yilning I yarim yilligi yakuni bo'yicha jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning aholi ixtiyoridagi daromadiga nisbatida 2022-yilning mos davriga nisbatan ijobji o'zgarish kuzatildi.

Bank tizimida moliyaviy barqarorlik holati xaritasida aktivlar o'sishining sekinlashishi va to'lovlar 31 kundan ortiq muddatga kechikkan aktivlar hajmining ortishi bilan bog'liq xatarlar biroz ortganligini ko'rish mumkin. Xususan, 2023-yilning dastlabki yarim yilligida bank aktivlarining o'sish sur'ati 2022-yilning mos davriga nisbatan 8 foiz bandga pasaygan. Shuningdek, substandart va undan quyi tasniflangan muammoli kreditlar ulushi 2023-yilning I yarim yilligi yakuni bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2 foiz bandga oshgan. Banklar daromadliligi ko'rsatkichida ijobji holat yuzaga kelgan bo'lib, aktivlar rentabelligi ko'rsatkichi so'nngi ikki yil davomida o'zgarishsiz 2,7 foiz darajasida shakllanib kelmoqda.



3-rasm: O'zbekiston Respublikasi bank tizimi bardoshliligi holati<sup>4</sup>

3 <https://cbu.uz/> ma'lumotlati asosida muallif tomonidan tuzildi

4 <https://cbu.uz/> ma'lumotlati asosida muallif tomonidan tuzildi



Bank sektori bo'yicha kapital monandilik va likvidlilik ko'rsatkichlarida kuzatilgan pasayish tendensiyalari bank tizimining turli ehtimoliy shoklar ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarga bardoshlilik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 2023-yilning 1-iyul holatiga reguliyativ kapitalning monandlik koeffitsiyenti o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,6 foiz bandga kamaygan. Shuningdek, banklarning likvidlilik holatini aks ettiruvchi likvidlilikni qoplash va sof barqaror moliyalashtirish koeffitsiyentlari ko'rsatkichlari pasaydi. 2023-yilning I yarim yilligida O'zbekiston bank tizimida kapital zaxiralarining o'rnatilgan kapital talabalaridan yuqori darajada shakllanishida davom etdi. Bu esa, makroiqtisodiy hamda tashqi geosiyosiy xatarlar sharoitida ham tijorat banklari uchun yetarli darajada ehtimoliy zararlarni qoplash imkoniyatini taqdim etmoqda. 2023-yilning 1-iyul holatiga banklarning jami reguliyativ kapitali o'tgan yilning mos holatiga nisbatan 14 foizga oshib, 88,7 trln so'mga yetdi. Bunda, kapitalning qariyb 85 foizini yuqori sifatli hisoblangan I darajali kapital tashkil qilmoqda.

Xalqaro hisob-kitoblar banki tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, kreditning YalMga nisbati tafovuti va qarzga xizmat ko'rsatish nisbati inqirozlardan erta ogohlantiruvchi eng ishonchli indikatorlar ekanligi qayd etilgan [11]. Xususan, kreditning YalMga nisbati tafovuti inqirozlardan uzoqroq muddat oldin ogohlantirishda foydalii indikator hisoblanadi. Qarzga xizmatko'rsatish nisbati 2 yil oldindan inqiroz bo'lishi to'g'risida ogohlantirish signallari aniqroq ko'rsata olish xususiyatiga ega. Shuningdek, barqaror bo'limgan majburiyatlar ulushi ko'rsatkichi ham inqirozlar haqida ogohlantirish berishda samarali ekanligi aniqlangan. Kreditlarning keskin o'sishiga mutanosib ravishda barqaror bo'limgan majburiatlarning o'sishi moliyaviy zaifliklar ortib borishini oldindan ko'rsatib berishi mumkin bo'lgan ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

## NATIJALAR INTERPRETATSIYASI

Ushbu tadqiqotni amalga oshirish davomida quydagi savollar paydo bo'ldi va ularga quydagicha javoblar shakllandi: O'zbekistonda banklar moliyaviy munosabatlarning umumiy tavsifi, nazariy va funksional asoslari qanday? Tijorat banklari moliyasini tashkil etish va korxonalarning moliyaviy mexenizmlarini ishlab chiqishning me'yoriy-huquqiy asoslari mavjudmi? Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning zarurligi, iqtisodiy mohiyati va vazifalari nimada? Mazkur tadqiqotni amalga oshirish davomida ushbu savollarga asosli javoblar shakllantirildi.

## XULOSA

Mamlakatimiz tijorat banklar kapitallashuvining yuksak darajada o'shishini ta'minlashga doir har tomonlama choralar ko'riliishi, likvidlik mustahkamlanishi va depozit bazasi oshirilishi hamda moliyaviy barqarorlikning ta'minlanishi natijasida yuksak reyting ko'rsatkichlariga va iqtisodiyotning real sektoriga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshishiga erishilmoqda.

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda quydagi jihatlarni e'tiborga olish maqsadga muvofiq:

*Birinchidan*, banklar potentsial yo'qotishlarni qoplash va o'z faoliyatining barqarorligini ta'minlash uchun etarli kapitalga ega bo'lishi kerak. Kapital bankning moliyaviy barqarorligining asosiy manbai hisoblanadi.

*Ikkinchidan*, banklar xatarlarni minimallashtirish va barqaror rentabellikni ta'minlash uchun o'z aktivlarini to'g'ri boshqarishlari kerak. Aktivlarning xilma-xilligi potentsial yo'qotishlarni yumshatishga yordam beradi.

*Uchinchidan*, majburiyatlarni boshqarish bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Jalb qilingan resurslar va qarz mablag'lari o'rtasidagi muvozanat saqlanishi zarur.

*To'rtinchidan*, banklar mumkin bo'lgan moliyaviy yo'qotishlarni oldini olish va barqaror faoliyatni ta'minlash uchun samarali xatarlarni boshqarish tizimlariga ega bo'lishi kerak.

*Beshinchidan*, banklar mijozlar oldidagi joriy va kelajakdagisi majburiyatlarni qoplash uchun yetarli likvidlikka ega bo'lishi lozim. Likvidlikning etishmasligi bank uchun jiddiy muammolarga olib keladi.

*Oltinchidan*, tijorat banklari, shuningdek, jarimlar va boshqa oqibatlarning oldini olish uchun tartibga soluvchi tashkilotlar tomonidan belgilangan barcha tartibga solish talablariga qat'iy rioya qilishlari maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi tablarga rioya qilish tijorat banklariga moliyaviy barqarorlikni saqlashga va bozorda muvaffaqiyatli ishslashga yordam beradi.



### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axrorov Z.O., Jalilov Sh. Banklarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash masalalari. Risola. – Samarqand: SamISI, 2017. – 27 b.
2. Корчагина Ye.B. Проблемы конкурентоспособности в современной экономике // Проблемы современной экономики. 2005. № 3/4 (15/16).
3. И.А. Павлова// Финансы и кредит, 2017г.“Анализ и прогнозирование финансовой устойчивости организации с учетом жизненного цикла на основе интегрального показателя”. 23 (июнь), с. 71-75.
4. Омельченко И.И. Финансово экономическая стабильность как составная часть организационно экономической устойчивости предприятий // Вестник машиностроения. 2017. № 4. С. 65.
5. Гиляровская Л.Т, Вехорева А.А. Анализ и оценка финансовой устойчивости коммерческого предприятия. СПб., 2013. С. 13.
6. Данилова Н.Л. Анализ финансовой устойчивости предприятия [Электронный ресурс] // Ассоциация “Открытая наука”. Выпуск № 2. 2014.
7. Ендовицкий Д.А., Ендовицкая А.В. Системный подход к анализу финансовой устойчивости коммерческой организации // Экономический анализ: теория и практика. 2005. № 6 (39).
8. Burxanov A.U. "Banklar moliyaviy barqarorligi: nazariya va amaliyat". Monografiya. T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyl", 2019. 160 b.
9. Шеремет, А.Д. Методика финансового анализа / [Текст]: А.Д. Шеремет, Р.С. Сайфуллин. – М.: ИНФРА-М, 2015.
10. Баканов М.И. Методы финансового планирования и прогнозирования на предприятиях / О. А. Лаенко // Вестник Прикамского социального института. – 2016. – № 2. –С. 52-55.
11. Drehmann, M., & Juselius, M. (2013, August). Evaluating early warning indicators of banking crises: Satisfying policy requirements. Bank for International Settlements.

# Yashi

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 4**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

**Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

